



## **OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI**

**Openbank sayti yoki mobil ilovasi orqali jismoniy shaxslarga bo'lib to'lash shaklida taqdim etiladigan qarz mablag'larining qaytmaslik xavfini sug'urta qilish to'g'risida**

**Toshkent shahri**

## Ommaviy oferta shartnomasi

### Openbank sayti yoki mobil ilovasi orqali jismoniy shaxslarga bo‘lib to‘lash shaklida taqdim etiladigan qarz mablag‘larining qaytmaslik xavfini sug‘urta qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligining Nizomiga muvofiq faoliyat yurituvchi Bosh direktori B. Kucharov bir tomondan, 2022-yil 25-fevraldagi 14-SF-seriya № 00037-sonli litsenziya asosida faoliyat yurituvchi “MY-INSURANCE” AJ nomidan (keyingi o‘rinlarda - Sug‘urtalovchi), va boshqa tomondan, Ustav asosida faoliyat yurituvchi “Open Bank” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda - Bank yoki Naf oluvchi), shuningdek ushbu ofertani aksept qilgan jismoniy shaxs (keyingi o‘rinlarda - Qarzdor), birgalikda “Tomonlar”, alohida holda esa “Tomon” deb atalib, qarz mablag‘larining qaytmaslik xavfini sug‘urta qilish to‘g‘risida ushbu ommaviy oferta shartnomasini (keyingi o‘rinlarda - “Shartnoma”) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz berganda, ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda va miqdorda, sug‘urta mukofoti belgilangan miqdorda va muddatlarda to‘langan taqdirda, Naf oluvchiga sug‘urta tovonini to‘lash majburiyatini oladi.

1.2. Sug‘urta obyekti sifatida Naf oluvchining qarz shartnomasi bo‘yicha qarzdorning o‘z majburiyatlarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi natijasida yuzaga keladigan zararlar bilan bog‘liq mulkiy manfaatlari qaraladi, bunda qarzdorlikning garov yoki boshqa ta‘minot turlari bilan ta‘minlanmagan qismi nazarda tutiladi.

1.3. Ushbu Shartnoma bo‘yicha Naf oluvchi sug‘urtalanuvchi (Bank) hisoblanadi. Qarzdor tomonidan Shartnoma amal qilish muddati davomida asosiy qarz summasining qisman qaytarilishi amalga oshirilgan taqdirda, sug‘urta summasi amalda qaytarilgan qarzdorlik miqdoriga kamaytiriladi.

1.4. Kredit (qarz) muddati 1 (bir) yilni tashkil etadi va qarz shartnomasida belgilangan qarzdorlikni qaytarish jadvaliga muvofiq aniqlanadi.

## 2. TERMINOLOGIYA

Ushbu Shartnomada quyidagi atamalar va ularning ta‘riflari qo‘llaniladi:

Elektron tijorat platformasi - Internet tarmog'idagi veb-sahifa yoki mobil ilova bo'lib, ular orqali Tomonlar o'rtasida o'zaro aloqalar amalga oshiriladi va shartnomalar tuziladi.

Oferta - Sug'urtalovchining ushbu Shartnomada bayon etilgan shartlar asosida sug'urta shartnomasini tuzish haqidagi, Platformada elektron shaklda joylashtirilgan taklifi.

Aksept - Ofertaning shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilish bo'lib, natijada ushbu Shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Qarz (bo'lib to'lash) shartnomasi - Bank va Qarzdor o'rtasida jismoniy shaxslarga bo'lib to'lash shaklida qarz mablag'larini taqdim etish to'g'risidagi shartnoma.

Qarzdorlikni qaytarish muddati - qarz mablag'lari taqdim etilgan sanadan boshlab, Qarzdor tomonidan to'lovlar jadvaliga muvofiq majburiyatlar to'liq bajarilgan sanagacha bo'lgan davr.

Bosh (general) polis - ushbu Shartnoma shartlari asosida bir guruh Qarzdorlarga nisbatan sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Sug'urta polisi - muayyan Qarzdorga nisbatan sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Sug'urta summasi - sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonini to'lash majburiyati belgilangan pul summasi.

Sug'urta mukofoti - ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartib va miqdorda to'lanadigan sug'urta haqi.

Sug'urta hodisasi - ushbu Shartnomada nazarda tutilgan, yuzaga kelganda Sug'urtalovchining Naf oluvchiga sug'urta tovonini to'lash majburiyatini keltirib chiqaradigan voqea.

Sug'urta tovonini - sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchi tomonidan Naf oluvchiga sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'i.

Naf oluvchi - ushbu Shartnoma bo'yicha sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan Bank (AJ "Open Bank").

Sug'urta muddati - ushbu Shartnoma va (yoki) sug'urta polisi bilan belgilangan sug'urta himoyasi amal qilish davri.

Kutish davri - ushbu Shartnomada belgilangan vaqt davri bo'lib, u tugaganidan keyin voqea sug'urta hodisasi deb e'tirof etilishi mumkin.

Shartnoma - ushbu oferta aksepti orqali tuziladigan sug'urta shartnomasi.

Xabarnoma yuborish manzili - Tomonlar o'rtasida xabarnomalar almashish uchun ko'rsatilgan elektron pochta manzili, telefon raqami yoki boshqa aloqa ma'lumotlari.

Xabarnoma - bir Tomon tomonidan boshqa Tomonga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan usulda yuboriladigan xabar.

### **3. SUG'URTA SUMMASI, SUG'URTA MUKOFOTI MIQDORI VA UNI TO'LASH TARTIBI**

3.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha sug'urta mukofoti qarz (oferta) shartnomasi asosida taqdim etilgan qarz summasining 120 foizi miqdorida belgilangan sug'urta summasining 2 (ikki) foizini tashkil etadi.

3.2. Sug'urta mukofoti uni to'lash majburiyati yuzaga kelgan paytdan boshlab 5 (besh) bank ish kuni ichida bir martalik tartibda to'lanadi.

3.3. Sug'urta mukofoti qisman to'langan taqdirda, Sug'urtalovchining sug'urta javobgarligi amalda to'langan sug'urta mukofoti qismiga mutanosib ravishda yuzaga keladi.

3.4. Sug'urta mukofoti to'langan sana sifatida pul mablag'larining Sug'urtalovchining bank hisobvarag'iga kelib tushgan sana hisoblanadi.

3.5. Sug'urta mukofoti Qarzdor tomonidan Sug'urtalovchi va Naf oluvchining roziligi bilan to'lanishi mumkin.

### **4. SUG'URTA POLISINI (BOSH POLISNI) TAQDIM ETISH TARTIBI**

4.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha Sug'urtalovchining majburiyatlari sug'urta mukofoti o'z vaqtida to'langan taqdirda yuzaga keladi va sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining bank hisobvarag'iga kelib tushgan kundan boshlab sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

4.2. Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining bank hisobvarag'iga kelib tushgandan so'ng, Bosh polis har oyda, hisobot oyidan keyingi oying 5 (beshinchi) sanasidan kechiktirmay, sug'urta himoyasi amal qiladigan mijozlar ro'yxati ilova qilingan holda elektron shaklda taqdim etiladi.

4.3. Sug'urta mukofoti kelib tushgandan so'ng sug'urta polisi Bank (AJ "Open Bank") mobil ilovasi orqali mijozga elektron shaklda taqdim etilishi mumkin.

4.4. Bosh polis yo'qolgan taqdirda, Naf oluvchi va (yoki) Sug'urtalanuvchining yozma arizasiga asosan sug'urta polisining dublikati 5 (besh) ish kuni ichida beriladi. Shundan so'ng yo'qolgan polis haqiqiy emas deb hisoblanadi va u bo'yicha sug'urta hodisalari ko'rib chiqilmaydi.

## 5. SUG'URTA HODISASI

5.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha Naf oluvchiga Qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi (qarzdorlikni so'ndirishga qodir emasligi) natijasida yetkazilgan zararlar sug'urta hodisasi deb e'tirof etiladi. Bunda Qarzdorning qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni belgilangan muddatda bajarmasligi yoki qarzdorlikning sud tartibida muddatidan oldin undirilishi nazarda tutiladi.

5.2. Qarzdor tomonidan qarzdorlikni belgilangan muddatda qaytarmaslik yoki qarz shartnomasi shartlariga muvofiq qarzdorlikning muddatidan oldin undirilishi sug'urta hodisasi yuzaga kelganligini tasdiqlaydi.

5.3. Voqeani sug'urta hodisasi deb e'tirof etishning asosiy sharti Qarzdor tomonidan qarz shartnomasida belgilangan muddatda qarzdorlikni so'ndirish bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi hisoblanadi. Bunda sug'urta tovonini to'lash uchun Qarzdorni sud tartibida to'lovga qobiliyatsiz deb topish talab etilmaydi.

5.4. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuzaga kelganda, ushbu Shartnomaning 6.1-bandida nazarda tutilgan shartlar bajarilganligidan qat'i nazar sug'urta tovonini to'lash huquqiga ega.

## 6. SUG'URTA QOPLAMASIDAN ISTISNOLAR

6.1. Quyidagi holatlar sug'urta hodisasi deb e'tirof etilmaydi va ular bo'yicha sug'urta tovonlari to'lanmaydi:

6.2. Qarzdor tomonidan qarz mablag'laridan maqsadsiz foydalanilishi.

6.3. Sug'urtalanuvchi va Qarzdor o'rtasida tuzilgan qarz shartnomasi bilan bevosita bog'liq holatlar bo'yicha qarz beruvchining va (yoki) Qarzdorning xodimlari jinoiy javobgarlikka tortilgan holatlar.

## 7. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Naf oluvchining (Sug'urtalanuvchining) huquqlari:

- 7.1.1. Ushbu Shartnoma ijrosi bilan bog'liq masalalar yuzasidan Sug'urtalovchidan maslahatlar olish;
- 7.1.2. Qarz mablag'lari hisobidan sotib olingan mol-mulkni qarz shartnomasi amal qilish muddati davomida sug'urtalashni ta'minlash;
- 7.1.3. Qarzdorlik to'liq so'ndirilgan taqdirda sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish talabi bilan Sug'urtalovchiga murojaat qilish;
- 7.1.4. Sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda uning dublikatini olish;
- 7.1.5. Ushbu Shartnomaga Sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

## 7.2. Sug'urtalanuvchining (Naf oluvchining) majburiyatlari:

- 7.2.1. Sug'urtalovchini qarz shartnomasi shartlarining mumkin bo'lgan o'zgarishlari, shu jumladan majburiyatlarni bajarishga mas'ul shaxslar o'zgarishi haqida xabardor qilish;
- 7.2.2. Sug'urtalovchining talabiga ko'ra zarar sabablarini va miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar hamda dalillarni taqdim etish;
- 7.2.3. Talab qilish huquqini (subrogatsiyani) amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni Sug'urtalovchiga taqdim etish;
- 7.2.4. Yuridik manzil va bank rekvizitlari o'zgartirilgan taqdirda bu haqda o'zgarishlar yuzaga kelgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kundan kechiktirmay xabardor qilish;
- 7.2.5. Ushbu Shartnoma doirasida olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

## 7.3. Sug'urtalovchining huquqlari:

- 7.3.1. Sug'urta shartnomasi amal qilish davrida Sug'urtalanuvchi va Qarzdordan qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni so'rash;
- 7.3.2. Qarzdorning moliyaviy holati to'g'risida, shu jumladan uning tugatilishi, bankrotligi yoki faoliyatining to'xtatilishi holatlarida ma'lumot olish.

## 7.4. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- 7.4.1. Ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda sug'urta polisini taqdim etish;
- 7.4.2. Sug'urtalanuvchiga ushbu Shartnoma shartlari bo'yicha tushuntirishlar va maslahatlar berish;
- 7.4.3. Sug'urtalanuvchi va (yoki) Naf oluvchidan olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlar yoki ularning yozma roziligi bundan mustasno.

## 7.5. Qarzdorning huquqlari:

- 7.5.1. Sug'urta shartnomasi amal qilish davrida sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar olish;
- 7.5.2. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hollarda sug'urta hodisasi yuzaga kelganda sug'urta tovonini olish uchun Sug'urtalovchiga murojaat qilish;
- 7.5.3. Sug'urtalovchi va Naf oluvchi bilan kelishilgan holda ushbu Shartnomaga o'zgartirish va

qo'shimchalar kiritish;

7.5.4. Qarzdorlik to'liq so'ndirilgan taqdirda sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida Sug'urtalovchiga ariza bilan murojaat qilish.

7.6. Qarzdorning majburiyatlari:

7.6.1. Sug'urtalovchini qarz shartnomasi shartlarining mumkin bo'lgan o'zgarishlari, shu jumladan majburiyatlarni bajarishga mas'ul shaxslar o'zgarishi haqida xabardor qilish;

7.6.2. Yuridik manzil, bank rekvizitlari va yashash joyi o'zgargan taqdirda bu haqda o'zgarishlar yuzaga kelgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kundan kechiktirmay xabardor qilish.

## 8. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

## 9. SUG'URTA TOVONINI TO'LASH TARTIBI

9.1. Sug'urta tovonini Sug'urtalovchi tomonidan Naf oluvchiga qarzdorlikning garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlanmagan qismi miqdorida, biroq har qanday holatda ham sug'urta summasidan oshmagan holda to'lanadi.

Sug'urta tovonining miqdori amalda taqdim etilgan qarz summasi bilan garov yoki boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlangan qarzdorlik qismi o'rtasidagi farq sifatida, asosiy qarzni so'ndirishga yo'naltirilgan mablag'lar chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

9.2. Sug'urta hodisasi yuzaga kelganda Sug'urtalanuvchi Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida ariza taqdim etishi, shuningdek zarar sabablarini va miqdorini aniqlash uchun zarur hujjatlarni taqdim etishda ko'maklashishi shart.

9.3. Sug'urta tovonini to'lash yoki to'lashni rad etish to'g'risidagi qaror Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urtalanuvchining arizasi hamda ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hujjatlar asosida qabul qilinadi va ularning olingan sanasidan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kundan kechiktirmay Sug'urtalanuvchiga ma'lum qilinadi.

9.4. Voqea sug'urta hodisasi deb e'tirof etilgan taqdirda, Sug'urtalanuvchi ishtirokida sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma tuziladi. Sug'urta tovonini mazkur dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida to'lanadi.

9.5. Sug'urta tovonining miqdorini aniqlashda Qarzdorning majburiyatlarini ta'minlashning barcha shakllari, shu jumladan garov mulki, pul mablag'lari, kafilliklar, shuningdek Qarzdorning boshqa aktivlari hisobga olinadi.

Kutish davri tugagandan so'ng sug'urta tovonini ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda to'lanadi.

9.6. Sug'urta tovonini to'lash rad etilgan taqdirda, Sug'urtalovchi Sug'urtalanuvchiga rad etish sabablari ko'rsatilgan yozma xabarnomani ariza va barcha zarur hujjatlar olingan sanadan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun ichida yuboradi.

## 10. SUBROGATSIYA

10.1. Sug'urta tovonini Naf oluvchiga to'langan taqdirda, to'langan summa doirasida zarar yetkazilishiga mas'ul bo'lgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi.

10.2. Sug'urtalanuvchi Sug'urtalovchining yozma talabi asosida talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur hujjatlar va dalillarni taqdim etishi shart.

## 11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA BEKOR QILISH TARTIBI

11.1. Ushbu Shartnoma Ofertaning aksepti amalga oshirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va unda nazarda tutilgan majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

11.2. Sug'urtalanuvchi va Qarzdor istalgan vaqtda sug'urta shartnomasidan voz kechish huquqiga ega. Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

11.3. Ushbu Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinadi:

a) sug'urta mukofoti ushbu Shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda va miqdorda to'lanmagan taqdirda;

b) Shartnoma muddati tugaganda;

v) Tomonlar kelishuviga ko'ra;

g) Sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini to'liq bajarganda;

d) Sug'urtalanuvchining faoliyati tugatilganda, shu jumladan qayta tashkil etilishi natijasida, bundan Shartnomada Tomonni almashtirish holatlari mustasno.

11.4. Shartnoma Tomonlardan birining yozma arizasi asosida, boshqa Tomonni kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin xabardor qilgan holda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

## 12. FORS-MAJOR

12.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarmaganlik uchun, agar bunday bajarilmaslik oldindan ko'rib bo'lmaydigan va oqilona choralar bilan oldini olib bo'lmaydigan yengib bo'lmas kuch holatlari (fors-major) natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

Majburiyatlarni bajarish imkoniyati yo'q bo'lib qolgan Tomon bunday holatlar yuzaga kelganligi va ularning taxminiy davomiyligi to'g'risida boshqa Tomonni darhol xabardor qilishi shart.

Bunday holatda Tomonlar bajarilgan majburiyatlar bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

## 13. IKKI MARTALIK SUG'URTALASH

13.1. Sug'urtalanuvchi sug'urtalangan xavfga nisbatan amal qilayotgan yoki rejalashtirilayotgan barcha sug'urta shartnomalari haqida Sug'urtalovchini xabardor qilishi shart.

13.2. Ikki martalik sug'urtalash mavjud bo'lgan taqdirda, sug'urta to'voni sug'urtalovchilar o'rtasida tegishli shartnomalar bo'yicha sug'urta summalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi, bunda to'lovlarning umumiy miqdori amaldagi zarar miqdoridan oshmasligi lozim.

13.3. Sug'urta hodisasi yuzaga kelgan paytda xavf bir nechta sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urtalangan bo'lsa, zararlarni qoplash har bir sug'urta tashkilotining sug'urta summasiga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

## 14. BOSHQA SHARTLAR

14.1. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq barcha nizolar, kelishmovchiliklar yoki talablar Tomonlar tomonidan muzokaralar yo'li bilan hal etishga intilinadi.

14.2. Ushbu Shartnoma bilan tartibga solinmagan Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.



- ☎ 1377
  - ✉ [office@openbank.uz](mailto:office@openbank.uz)
  - 🌐 [www.openbank.uz](http://www.openbank.uz)
  - 📍 100000, Tashkent, Shahrisabz 2
-